

TALABALARNING O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Doniyorov Kamoliddin Nizomidin o'g'li

ISFT Samarqand filiali, ISFT instituti Samarqand filiali

Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida shaxsning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish, o'z bilimini baholash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashtirish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatib, talabaning faqat bilim oluvchi emas, balki o'z o'quv faoliyatini ongli ravishda boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllanishini talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasi shaxsning kognitiv rivojlanishi, reflektiv tafakkuri va o'quv motivatsiyasini shakllantirishda muhim psixologik omil sifatida qaraladi.

Pedagogik psixologiyada o'z-o'zini nazorat qilish shaxsning o'z faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va tuzatish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi murakkab metakognitiv jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayon shaxsning ichki nazorat mexanizmlarini faollashtirib, o'z xatti-harakatlarini ongli boshqarishga xizmat qiladi. O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasi rivojlangan talaba o'z o'quv maqsadini aniq belgilaydi, bilim darajasini baholaydi, o'z xatolarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqadi. Natijada, o'quv faoliyati samaradorligi oshib, mustaqil o'rganish jarayoni izchil shakllanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan o'z-o'zini nazorat qilish bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan iborat. Birinchisi – motivatsion komponent bo'lib, u shaxsning o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va maqsadga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Ikkinchisi – kognitiv komponent bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish, tushunish va amaliyotda qo'llash jarayonini o'z ichiga oladi. Uchinchi komponent – metakognitiv komponent bo'lib, shaxsning o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, o'quv strategiyasini rejalashtirish va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. To'rtinchi komponent – reflektiv komponent bo'lib, o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va kelgusi faoliyatni takomillashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda shaxsning intellektual va psixologik rivojlanishini ta'minlaydi.

Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim psixologik imkoniyatlar yaratadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida

tashkil etilgan interaktiv ta'lim muhiti o'quv faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, shaxsiy o'quv trayektoriyasini shakllantirish, avtomatik baholash va reflektiv fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Bunday muhitda talaba o'z natijalarini doimiy kuzatib boradi, xatolarini tahlil qiladi va o'z bilim darajasini obyektiv baholaydi. Bu esa o'z-o'zini nazorat qilishning metakognitiv va reflektiv mexanizmlarini faollashtiradi.

Raqamli ta'lim vositalari shaxsning ichki motivatsiyasini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Interaktiv topshiriqlar, vizual natijalar va tezkor fikr-mulohaza talabani o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z faoliyati natijalarini tezkor baholash imkoniyati mavjud bo'lgan sharoitda shaxsning o'quv motivatsiyasi va o'zini boshqarish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Shu sababli, raqamli ta'lim muhiti o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

huningdek, refleksiya jarayoni shaxsning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya – bu shaxsning o'z fikrlari, harakatlari va natijalarini ongli ravishda tahlil qilish jarayonidir. Raqamli ta'lim muhiti reflektiv savollar, o'zini baholash tizimlari va elektron portfoliolar orqali talabani reflektiv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, talaba o'z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi va o'z o'quv faoliyatini ongli boshqaradi.

Zamonaviy pedagogik psixologiyada o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish shaxsning kasbiy va intellektual rivojlanishining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Raqamli ta'lim muhiti esa ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi innovatsion vosita sifatida talabani mustaqil o'rganish faoliyatini samarali tashkil etish, reflektiv tafakkurini rivojlantirish va o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining psixologik omillarini chuqur o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarida o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish shaxsning intellektual mustaqilligi, reflektiv fikrlashi va o'quv motivatsiyasini shakllantirishda muhim psixologik omil hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhiti esa ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida talabani o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, talabani o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalari rivojlanib, mustaqil o'rganish faoliyati samaradorligi oshadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. G'ofurov I.A. Axborot xavfsizligi asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2020.



2. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Ishmuhamedov R.J. Ta'limda innovatsion va interfaol metodlar. – Toshkent: Universitet, 2010.